



## 2019 yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### **RAQAMLAR:**

- Sanoatishlab chiqarish hajmi **3291,8 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi – **101,1%** ni tashkil etdi;
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotini hajmi o'rtacha **3949,9 ming.so'mni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **115,7%**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **38,2%** ni tashkil etib, aholi jon boshiga o'rtacha **1508,0 ming.so'mngato'gri** keldi.
- Sanoatishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **44,9%**


2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3291,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 101,1% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 37,0 % ga, tog`-kon sanoati 11,3 % ga va qayta ishslash sanoatining 3,2 % ga, o'sishi hisoblandi.

### **2019 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda**



## 2019 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 111,3% ni tashkil etganni kuzatish mumkin.




## Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

Qayta ishlash sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1801,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 54,7 % ni) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,2 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Hususan 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sish indeksi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoxda, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi 277,4 % ni, boshqa nometal mineral maxsulotlar ishlab chiqarish indeksi 115,2 % ni, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 113,9 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 5,3 % ni (2018 yilning yanvar-iyun oylarida - 5,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,7 % (5,9 %), o'rta-quyi texnologiyali - 16,7 % (16,7%) va quyi texnologiyali - 72,3 % (72,4 %) tashkil etdi.



**Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnalogik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %**



**Yanvar-iyun oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018 yil</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019 yil</b>	<b>2018 yil yanvar- iyunga nisbatan, %</b>
	<b>Sellyuloza, ming kg 90%</b>		
276,4		744,9	269,5
	<b>Un, ming tonna</b>		
18,2		18,6	102,1
	<b>Ho`jalik sovuni tonna</b>		
770,1		538,3	69,9
	<b>Kalava ip, tonna</b>		
2272,9		1768,0	77,8
	<b>Paxta tolasi, mina tonna</b>		
27,1		17,2	63,3
	<b>Paxta urug'l, ming tonna</b>		
43,0		26,9	59,2
	<b>Kunjara, ming tonna</b>		
27,7		14,7	53,0
	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna</b>		
5,9		2,5	41,8
	<b>Aroq – mig litr 100 % spirit</b>		
580,5		148,6	25,6

## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1386,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 42,1 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi indeksi 96,8 % ga kamayganligi kuzatildi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmi indeksi 97,1 % ni va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi indeksi 82,9 % ni tashkil etgani kuzatildi.

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**



2018 yilning Yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Elektroenergiya, mln kVt/s</b>			
7890,9		7612,6	96,5
<b>Issiqlik energiyasi, mln Gkal</b>			
132,9		79,2	59,6

## **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 98,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 137,0 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Shuningdek 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan hajm indekslari shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar 50,1 % ga hamda suvga ishlov berish va taqsimlash xizmatlari 8,8 % ga oshganligi kuzatildi.

### **Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yilning Yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

**Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo`yicha taqsimlash xizmatlari, mln so`mda**

4555,0



6624,1

145,4

**Shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar, mln so`mda**

1148,8



3958,7


344,6



## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1256,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 115,7 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 38,2 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 60,7 % dan 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 65,4 % ga oshishi kuzatilmoqda.

### Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 0,7 % ni (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 2,9 %) tashkil etdi.

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 1320,6 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 40,1 % ulushini), Sirdaryo tuman 601,8 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 18,3 % ulushini), Guliston shahri 530,9 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,1 % ulushini), Boyovut 157,6 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 4,8 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

#### 2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Shu bilan birga eng kam ulush Oqoltin tumani 102,0 mlrd so'm (3,1 %), Xovos tumani 68,9 mlrd so'm (2,1 %), Guliston tumani 50,2 mlrd so'm (1,5 %) hissasiga to'g'ri keladi

## **2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3949,9 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi tahlil qilinganda, Shirin shahrida 71122,4 ming so'mni tashkil etib o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligidini ko'rsatmoqda.

### **2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,**




Tuman va shahrlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Boyovut tumanida 128,7%, Yangiyer shahrida 115,0 % hamda Oqoltin tumanida 105,8 %. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Shirin shahrida 96,7 % va Sardoba tumanida 73,4% ni tashkil etgan.

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1478,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 44,9 foizi) yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 118,1 foizni tashkil qilgan.

### 2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi  
Sanoat statistikasi bo`limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23